

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Ochilova Feruza Murtazoyevna –
Buxoro shahar 24-son “Nurli maskan”
ixtisoslashtirilgan maktab-internati kimyo fani o'qituvchisi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Innovatsion faoliyatning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot davomida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishga ta'sir etuvchi tashkiliy-boshqaruv, kadrlar salohiyati, moddiy-texnik ta'minot, axborot-resurslar hamda psixologik-pedagogik omillar tizimli ravishda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, pedagoglarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish, ta'lim muassasalarida innovatsion muhitni shakllantirish va ilg'or pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, ta'lim sifati, innovatsion muhit, kompetensiya.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Очилова Феруза Муртазоевна – учитель химии специализированной
школы-интерната №24 города Бухары «Нурли маскан»**

Аннотация. В статье анализируются теоретические и практические аспекты внедрения инновационных педагогических технологий в образовательный процесс. Обоснована роль инновационной деятельности в повышении качества и эффективности образования. В ходе исследования системно рассмотрены организационно-управленческие, кадровые, материально-технические, информационные и психолого-педагогические факторы, влияющие на внедрение инновационных педагогических технологий. Особое внимание уделено развитию инновационной компетентности педагогов,

формированию инновационной среды в образовательных учреждениях и внедрению передового педагогического опыта в практику обучения.

Ключевые слова: инновация, педагогическая технология, качество образования, инновационная среда, компетенция.

FACTORS INFLUENCING THE IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Ochilova Feruza Murtazoevna – Chemistry teacher at Bukhara City Specialized Boarding School No. 24 “Nurli Maskan”

Annotation. The article examines the theoretical and practical aspects of implementing innovative pedagogical technologies in the educational process. The role of innovative activity in improving the quality and effectiveness of education is substantiated. The study systematically analyzes organizational and managerial, human resource, material and technical, informational, as well as psychological and pedagogical factors influencing the implementation of innovative pedagogical technologies. Special attention is paid to the development of teachers' innovative competence, the formation of an innovative educational environment, and the integration of advanced pedagogical practices into educational activities.

Keywords: innovation, pedagogical technology, quality of education, innovative environment, competence.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, mehnat bozori talablarining o'zgarishi pedagogik jarayonni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asosda o'rganish dolzarb masala sanaladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi. Biroq ushbu texnologiyalarni amaliyotga samarali tatbiq etish jarayoni bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bevosita bog'liq bo'lib, ular pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, boshqaruv va metodik ta'minot darajasi, raqamli infratuzilma imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonida innovatsion madaniyatning shakllanganlik holati bilan belgilanadi. Mazkur omillarni tizimli tahlil qilish innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Innovatsion pedagogik texnologiyalar masalasi xorijiy va mahalliy pedagogika fanida keng tadqiq etilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda turli nazariy yondashuvlar va ilmiy qarashlar shakllangan. Tadqiqotchilar innovatsion texnologiyalarni ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholaydilar.

Xususan, E.Rogers innovatsiyalarning tarqalish nazariyasida innovatsiyalarni joriy etish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni besh bosqich orqali izohlaydi: xabardorlik, qiziqish, baholash, sinov va qabul qilish. Muallif ta'lim sohasida innovatsiyalarni muvaffaqiyatli tatbiq etish pedagoglarning yangiliklarga bo'lgan munosabati va institutsional qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi [2].

M.Fullan ta'limdagi innovatsion o'zgarishlarni kompleks jarayon sifatida talqin qilib, pedagogik innovatsiyalarning samaradorligi tashkiliy madaniyat, rahbariyat pozitsiyasi va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq ekanligini ilmiy asoslab bergan. Uning tadqiqotlarida innovatsion islohotlar faqat texnologik yangilanish emas, balki pedagogik tafakkurning o'zgarishini talab qilishi qayd etilgan [1].

Pedagogik texnologiyalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalash masalasi P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli orqali yoritilgan. Ushbu modelda innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash uchun pedagoglarda fan mazmuni, pedagogika va texnologiya bilimlarining uyg'unligi zarurligi asoslab beriladi [3].

UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'limning ochiqqligi, inklyuzivligi va uzluksizligini ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Hisobotlarda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va raqamli resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi innovatsion jarayonlarning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [4].

Mahalliy olimlardan B.X.Xodjayev pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayonini modernizatsiyalashning muhim omili sifatida baholab, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi va metodik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish uzluksiz metodik qo'llab-quvvatlash va tajriba-sinov faoliyatini talab etadi [6].

Shuningdek, G.Salomonning tadqiqotlarida kognitiv faoliyatni rivojlantirishda texnologiyalarning vositachilik roli asoslab berilib, innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiruvchi muhim pedagogik resurs sifatida talqin etiladi [5].

Natijalar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ko'p omilli jarayon bo'lib, u tashkiliy, texnologik, kadrlar va psixologik omillarning uyg'unligini talab etadi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar mazkur masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi hamda uni zamonaviy ta'lim sharoitida yanada chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Pedagogik adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasi yangilik yaratish, joriy etish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlari bilan izohlanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar deganda ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholashda yangi

metod, vosita va shakllardan tizimli foydalanish tushuniladi. Bunday texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodkorligini qo'llab-quvvatlash va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga ta'sir etuvchi omillar muhim bo'lib hisoblanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish ko'p omilli jarayon bo'lib, quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

1. *Tashkiliy-boshqaruv omillari* – ta'lim muassasasida innovatsion muhitning mavjudligi, rahbariyatning yangiliklarga ochiqqligi, strategik rejalashtirish va metodik xizmat faoliyati innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishda muhim ahamiyatga ega.

2. *Kadrlar salohiyati bilan bog'liq omillar* – pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari, innovatsion faoliyatga bo'lgan motivatsiyasi va ijodiy yondashuvi asosiy belgilovchi omillardan biridir.

3. *Moddiy-texnik baza va resurslar* – zamonaviy texnik vositalar, raqamli platformalar, elektron o'quv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4. *Psixologik-pedagogik omillar* – pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar, yangiliklarni qabul qilishga tayyorgarlik, innovatsiyalarga nisbatan ijobiy munosabat muhim ahamiyat kasb etadi.

5. *Normativ-huquqiy omillar* – ta'lim sohasidagi davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar, ta'lim standartlari va konsepsiyalar innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun zarur huquqiy asosni yaratadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish jarayoni ketma-ket va tizimli omillar majmuasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu omillar ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonining qonuniyligi va izchilligini ta'minlaydi.

Muhokama. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish samaradorligini oshirishning bir necha yo'llari mavjud. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayonida tizimli yondashuv, pedagoglarning doimiy kasbiy rivoji, tajriba-sinov

ishlari va monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va milliy ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish samaradorlikni oshiradi.

Tashkiliy-boshqaruv omillari innovatsion muhitni shakllantirish va pedagogik jarayonni muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari rahbariyatning innovatsiyalarga ijobiy munosabati va samarali boshqaruv innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishning asosiy shartlaridan biri ekanligini ko'rsatdi.

Kadrlar salohiyati omillari pedagoglarning innovatsion kompetensiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari va kasbiy motivatsiyasi bilan belgilanadi. Mazkur omil innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Moddiy-texnik va axborot resurslari innovatsion texnologiyalarning uzluksiz va samarali qo'llanilishini ta'minlaydi. Raqamli infratuzilma rivojlangan ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat samaradorligi yuqori bo'lishi aniqlangan (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga ta'sir etuvchi omillar

Demak, psixologik-pedagogik omillar pedagoglar va o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilishga tayyorgarligi hamda o'zaro hamkorligi bilan bog'liq bo'lib, innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayoniga moslashuvini ta'minlaydi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan grafik model innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish barcha omillarning uzviy uyg'unligi asosida amalga oshirilishini ilmiy jihatdan asoslab beradi va ta'lim muassasalari faoliyatini rejalashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, u tashkiliy, pedagogik, moddiy-texnik va psixologik omillarning uyg'unligiga bog'liq. Mazkur omillarni hisobga olgan holda olib borilgan innovatsion faoliyat ta'lim sifati va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish jarayoni ketma-ket va tizimli omillar majmuasi asosida tashkil etiladi. Ushbu omillar ta'lim muassasalarida innovatsiyalarni joriy etishning qonuniyligi va izchilligini ta'minlab, samarali pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016. – 384 p. – P. 3–27, 89–118.
2. Rogers E.M. Diffusion of Innovations. – New York: Free Press, 2003. 2003. – 551 p. – P. 11–38, 221–250.
3. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. // Teachers College Record, 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.
4. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. – Paris, 2018. 72 p. – P. 14–29, 45–58. – 234 p. – P. 43–67, 119–145.

5. Salomon G. Distributed Cognitions: Psychological and Educational Considerations. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993.

6. Xodjayev B.X. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 176 b. – 15–34-b., 88–112-b.